

## INTERPRETATION OF THE IMAGE OF WOMEN IN THE STORIES OF ISAJON SULTAN

**Akhmedova Kamola Ziyodulla qizi<sup>1</sup>**

Alisher Navoi University of Language and Literature, Tashkent, Uzbekistan,

[1kamola.axmedova1993@gmail.com](mailto:1kamola.axmedova1993@gmail.com)

### **Annotation.**

The depiction of the soul in works of art is distinguished by its relative depth and impact on the scientifically researched and philosophical interpretation of the soul. That is, since man is the subject of literature, it is impossible to imagine him as a whole without the human psyche.

### **Keywords:**

Spirit, landscape, artistic pathos, aesthetics

## ISAJON SULTON HIKOYALARIDA AYOLLAR OBRAZI TALQINI

**Axmedova Kamola Ziyodulla qizi<sup>1</sup>**

Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot universiteti, Toshkent, Uzbekistan,

[1kamola.axmedova1993@gmail.com](mailto:1kamola.axmedova1993@gmail.com)

### **Annotatsiya.**

Badiiy asarlardagi ruhiyat tasviri ruh borasidagi ilmiy tekshirilgan va falsafiy talqinidagi nisbatan teran va ta'sirli ekanligi bilan farqlanadi. Ya'ni Inson-adabiyotning tasvir predmeti ekan, insonning ruhiyatisiz uni yaxlit, bir butun holatda to'liq tasavvur qilish mumkin emas.

### **Tayanch so'zlar:**

Ruhiyat, peyzaj, badiiy pafos, estetika

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В РАССКАЗАХ ИСАДЖОНА СУЛТАНА

**Ахмедова Камола Зиёдулла кызы<sup>1</sup>**

Университет языка и литературы имени Алишера Навои, Ташкент, Узбекистан,

[1kamola.axmedova1993@gmail.com](mailto:1kamola.axmedova1993@gmail.com)

### **Аннотация.**

Изображение души в произведениях искусства отличается относительной глубиной и влиянием на научно исследованное и философское толкование души. То есть, поскольку человек является предметом литературы, невозможно представить его в целом без человеческой психики.

### **Ключевые слова:**

дух, пейзаж, художественный пафос, эстетика.

Yozuvchining bugungi kundagi hikoyalarining qahramonlari ko'proq kuchli ruhiy g'alayonlar, cheksiz ma'naviy tanazzullar iskanjasida aks ettiriladi. Hikoyalarida hayotning achchiq zarbalari, turmushning ayyovsiz sinovlari natijasida shaxsligi, ma'naviy olamini shakllantirayotgan insonlarning yangicha dunyoqarashini va shu hayotni ko'rsatish asnosida adiba milliy adabiyotimizda yangi qahramonlar silsilasini ko'rsatadi. Isojon Sulton hikoyalarining qahramonlari turlicha, ba'zilari hayotda juda ko'p ezilgan qalbi armonga to'la taqdir egalidir. Bunday yondashuv qahramon

tuyg'ularini to'laroq idrok etish, uni chuqurroq tadqiq etish, insonning xatti-harakatlarini yashash sharoiti, tayanadigan axloqiy o'rnaklaridan kelib chiqib baholash imkonini beradi.

Yozuvchi milliy adabiyotimizda ko'pdan ko'p qaror topgan, qahramon ruhiyatini har jiyatdan bo'rtirib ko'rsatishga xalaqit beradigan badiiy cheklashlardan voz kecha oladi. Shu sababli ham uning hikoyalari qahramonlari yoqimli va yoqimsiz xarakter egasi sifatida tasvirlanishidan qat'i nazar o'quvchini befarq qoldirmaydi. Kitobxon bu personajlar qismatidan tasvirlanganligini, ularga ichdan xayrixohlik tuygani bois ularning ruhiy olamiga ko'chganini sezmay ham qoladi.

Isojon Sultonning ayrim hikoyalarida ayol ruhiy kechinmalari, ko'ngilning nozik tovlanishlarini, dardi va qismati, orzu-armonlari tasviriga e'tibor kuchlidir. Ijodkor qalbida bir dunyo havaslar bilan yashayotgan, o'z taqdiri uchun kurashishga bel bog'lagan, biroq qismayt oldida chorasiz va betadbir qolgan, ammo qalbida kelajakka umid ruhi ustun o'zbek ayoli qalbini ishonarli qilib tasvirlaydi.

Isojon Sulton hikoyalari bilan o'zbek adabiyotiga o'ziga xos "yangi hayot"<sup>1</sup> nafasini olib keldi. O'zining hikoyalarida jahonning ilg'or tarjibalari bilan foydalanib kelmoqda. Ammo yozuvchi hikoyalarida o'z tug'ilgan yurtini, urf-odatlarini, ularning hayotga qargan qarshilarini singdirishga harakat qiladi. Obrazlarning ruhiy tasvirini kuchaytish uchun murakkab tuyg'ularini ifodalashga harakat qiladi. Yozuvchining "Bibi Salima" hikoyasi qahramoni Bibi Salima asl o'zbek ayoli sifatida gavdalansa, "Yusuf va Zulayho" hikoyasidagi Zulayho umr yo'ldoshini mushtaq bo'lib unini o'tkazgan ayoldir. Bu qahramonlarning kechinmalari turlicha. Endilikda shaxs faqat ijtimoiy munosabatlar mahsuli emas, balki ilohiy, tabiiy, sirli-sehrli mavjudot sifatida tasvirlanmoqda. Ijodkorning voqelikni chuqurroq aks ettirish, badiiy tasvir imkoniyatlarini yanada kengaytirish, badiiy niyat salmoqdorligini yanada oshirish yo'lida tinimsiz izlanishlar olib borilmoqda. Turfa xil taqdir egasi bo'lgan kishilar xayotini tasvirlash orqali azaliy qadriyatlarimizga insoniy munosabatlarimizga, turmushning murakkab va ziddiyatli jihatlarga munosabat bildirilmoqda.

Adibaning bugungi kundagi hikoyalarining qahramonlari ko'proq kuchli g'alayonlar cheksiz ma'naviy tanazzul iskanjasida aks ettiradi.

Yozuvchining hozirgi hikoyalariga oldingiga nisbatan hayotni haqqoniy aks ettirishi, qahramonlarni butun qarama-qarshiliklari bilan ko'rsatadi. Adib o'zgargan davr va unda yashayotgan qahramonlar ruhiyatini hayotiy va badiiy haqiqatga aylantiradi, boricha tasvirlanadi.

Isojon Sulton hikoyalarida ayollar ko'ngilaridagi yashirin, hech kimga aytib bo'lmaydigan, tasvirlash undan-da mushkul bo'lgan ruhiy holatlarni g'amgin qilib tasvirlaydi.

Bugungi kunda zamonaviy yozuvchilar, xatto shoirlarimiz ijodida zamonaviy badiiy tasvir olami mavjud. Biroq Isojon Sulton bunday holatning aksi ko'zga yaqqol tashlanadi. Chunki bu ijdkorda o'zgacha tafsil mavjud.

<sup>1</sup>Umarov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi.-Toshkent: Fan.1983.-B.81

Uning asarlarida, ayniqsa hikoyalarida tasvirlanayotgan voqea va holatlar kechadigan joy ko'pincha oddiygina qishloqlarda ro'y beradi.

Qishloq manzarasi insonning ko'z oldida samimiy, sof-pokiza maskanni, unutilmas yosh bolalik yillarini yoki samimiy tuyg'ularni yodga soladi.

Balkim, Isojon Sultonning hikoyalaridagi bu tafsil insonning psixologiyasidagi ruhiy manzarani samimiy tarzda tarbiyalash uchun qo'llangandir. Badiiy asarning tahlilida biror timsolning o'z o'rnida qo'llanilishi asarning mazmuni ochishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotshunos U. Normatov ta'kidlaganidek, bir vaqtlar nazardan chetda qolgan, aslida esa asrash, ardoqlashga munosib odat va tamoyillarimizni o'zida mujassam etuvchi kishilar obrazini olib kirishga mayl ortdi. Isojon Sulton o'z hikoyalarida bir toifa qahramonlarini yaratidiki, ularning siyratida ana shunday maylni ko'rish mumkin. Hikoyalarda tasvirlangan ruhiyat tasvirlari siz-u bizni e'tiborsizlikda qoldirmaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, Isojon Sulton hikoyalarining tahlilida adabiy asarning o'ziga xos yondashuv, yozuvchining ruhiy holatini ham anglash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Isojon Sulton "Genetik"//Yangi asr avlodi. -Toshkent 2018. 336-bet
2. Eshonqulov J. Ruhiytahlil metodi xususida// O'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent,1997.-№2. – B.43
3. Umarov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi.-Toshkent: Fan.1983.-B.81
4. G'oziev E. Umumiy psixologiya.–Toshkent: O'zbekiston faylasuflari
5. milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
6. E.Gusserl. General introduction to a pure fenomenologiy. Boston, Lankaster1983. P.19